



**O‘RTA ASR MUSULMON SHARQI KUTUBXONALARINING FAOLIYATI**

***Muazzamxon Maxmudova***

*Farg‘ona davlat universiteti*

*Jahon tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi, PhD*  
*maxmudovamuazzam1982@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Bag‘doddagi “Bayt al-hikma” kutubxonasi, Qohiradagi “Dar al-ilm” kutubxonasi, Qurdobagi saroy kutubxonasi haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, xalifalarning ilm-fanga, ayniqsa, kutubxonalarga qaratilgan yuksak e’tibori yoritiladi.

**Tayanch so‘zlar:** “Bayt al-hikma”, saroy kutubxonasi, bibliofil, “Dar al-ilm”, tarjimon.

**Аннотация:** В статье представлена информация о библиотеке “Байт аль-Хикма” в Багдаде, библиотеке “Дар аль-Илм” в Каире и Дворцовой библиотеке Кардобы. В нем также подчеркивается большое внимание, которое халифы уделяли науке, особенно библиотекам.

**Ключевые слова:** “Байт аль-хикма”, дворцовая библиотека, библиофил, “Дар аль-ильм”, переводчик.

**Annotation:** The article provides information about the Bayt al-hikma library in Baghdad, the Dar al-Ilm library in Cairo, and the Cardova Palace Library. It also highlights the great attention that the caliphs paid to science, especially libraries.

**Key words:** “Bayt al-hikma”, the palace library, bibliophile, “Dar al-‘ilm”, translator.

## **KIRISH**

Tarixdan ma’lumki, kutubxonalar qadimdan insonlar uchun ilm va ma’rifat markazi bo‘lib xizmat qilgan. Kutubxonalar jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, kutubxonalar tufayli qadimgi qo‘lyozmalar, xo‘jalik hujjatlari, yilnomalar, tarixiy shaxslar haqidagi ma’lumotlar bizgacha yetib kelgan. Musulmon dunyosi qog‘oz ishlab chiqarish sirini VIII asrda xitoylik asirga olingan askarlardan o‘rgangan. Keyinchalik butun Yevropa va Hindiston qog‘oz ishlab chiqarishni musulmonlardan o‘zlashtirgan. Arab xalifaligida birinchi ommaviy kutubxonalar Damashq, Bag‘dod, Qohira va Qurdoba shaharlarida paydo bo‘lgan. Kutubxonalar qo‘g‘ozdan yasalgan kitoblarga to‘lgan edi. Xalifalikda kutubxonalar masjidlar va madrasalar tarkibida bo‘lgan, bu davrda masjidlarda diniy, ilmiy, falsafiy masalalarga bag‘ishlangan ma’ruzalar, munorazalar va muhokamalar o‘tkazilardi. Quyida esa Arab xalifaligida vujudga kelgan va jahon ilm-fanining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan kutubxonalar tarixi va faoliyati haqida so‘z boradi.

## **MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI**

O‘rtalikta musulmon Sharqi kutubxonalarini mavzusi doirasida mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yoritilgan maqolalar tahlil qilindi. Xususan, B.Abduhalimovning “Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag‘dodagi ilmiy faoliyati” monografiyasida saroy kutubxonasi faoliyati keng yoritilgan. Adel Abdul-Aziz Algeriani va Mavoud Mohadiy, A.Shamsuzzoha, Don Hamerli kabi mualliflarning tadqiqotlarida xalifalik mamlakatlaridagi kutubxonalar, ularning faoliyati batafsil yoritilgan. Kashmirda nashr qilingan “Islamic culture in Spain” (Ispaniyada islam madaniyati) nomli o‘quv qo‘llanmada Qurdobada joylashgan saroy kutubxonasi faoliyati ochib berilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Arab xalifaligi poytaxtida vujudga kelgan “Bayt al-hikma” dastlab kutubxona vazifasini o‘tagan. “Bayt al-hikma” Horun ar-Rashid hukmronligi davrida kutubxona, tarjima qilish, muqovalash kabi vazifalarni bajaruvchi guruhlardan iborat bo‘lgan. Xalifalardan al-Mansur, Horun ar-Rashid, al-Ma’mun hukmronligi davrida nodir kitoblar tanlab olingan va qo‘sni davlatlarga kitoblarni jamlash uchun ekspeditsiyalar uyushtirganlar[1:31]. Xalifa al-Mansur qo‘lyozma kitoblar bilan birga tarjima qilingan kitoblarni saqlash uchun saroydan joy ajratadi. Horun ar-Rashid davrida esa “Bayt al-hikma” faoliyati yanada rivojlanadi.

Yuqorida ismi zikr etilgan xalifalarning kutubxona tashkil qilib, doimiy ravishda kutubxona fondini kitoblar bilan to‘ldirib borganligi haqida o‘sha davr mualliflarining asarlarida yoritib o‘tilgan. Masalan, Ibn an-Nadim o‘zining “Al-Fihrist” kitobida: “Abu Sahl al-Fadl ibn Nubaqt ar-Rashidning kitob javoni (kitoblar saqlanadigan joy) yonida bo‘lgan”, deb ma’lumot beradi. Yoqut al-Hamaviy esa “Al-Varroq ar-Rashid va al-Ma’mun” davrida “Bayt al-hikma”da kitoblar ko‘chirilgan va ko‘paytirilgan”ligini aytib o‘tadi[2:181].

Manbalarda “Bayt al-hikma” haqida ma’lumot berilgan bo‘lsa-da, lekin uning qayerda joylashganligi, me’moriy dizayni to‘g‘risida yetarli ma’lumotlar uchramaydi. “Bayt al-hikma” kutubxonasida kitoblarni saqlash, nusxa ko‘chirish va jiddlash, xaritalar va qo‘lyozmalar, tarjima va kitob yaratish bo‘limlari mavjud edi.

Arab xalifaligi mo‘g‘ullarning bosqinchilik yurishidan so‘ng tanazullga yuz tutdi. Xuloku boshchilidagi mo‘g‘ullar 1258-yilda Bag‘dodga bostirib kirgandan so‘ng kutubxonaning kitoblar, qo‘lyozmalar, xaritalar, rasadxonalar va hokazolardan iborat shaxsiy hamda jamoat xonalarini vayron qildilar. Katta fondni yoqib yubordilar va kitoblarni Tigr (Dajla) daryosiga tashladilar. Ba’zi ma’lumotlarda mo‘g‘ullar o‘z omborlarini loy o‘rniga kitoblar yordamida qurishgan[2:185]. Afsonalarga ko‘ra, Dajla daryosiga shunchalik ko‘p kitoblar tashlanganki, natijada daryo suvi siyoh bilan qorayib ketgan.

Islam olaming ikkinchi yirik kutubxonasi Qohirada vujudga kelgan. Ushbu saroy kutubxonasiga ismoiliylar asos solgan. 909-yilda Ubaydulloh-al-Mahdiy Abbosiylar xalifaligiga qarshi islamning ismoiliya mazhabini targ‘ib qilish uchun Shimoliy Afrikaning Tunis shahrida Fotimiylar xalifaligini (909-1171) tuzdi. Xalifa al-Muizz hukmronligi davrida, ya’ni 969-yilda Misr zabt etildi. Uning asl ismi Abu Tamim Ma’ad al-Muizz-li-Din Alloh bo‘lib, Fotimiylarnig to‘rtinchi xalifasi va o‘n to‘rtinchi imomi edi. Aynan uning xalifaligi

davrida Fotimiylar sulolasining hokimiyat markazi Ifriqiyyadan (Tunis) Misrga ko‘chirilgan. Fotimiylar 969-yilda Misrdagi Fotimiylar xalifaligining yangi poytaxti sifatida [Qohira](#) (al-Qohirah, “g‘olib”) shahriga asos solgan. Poytaxt Qohiraga ko‘chirilgandan so‘ng, xalifa barcha sohalarga e’tibor qaratib, ilm-fanni ham rag‘batlantirdi. Fotimiylar saroyida al-Muizz davrida dunyoda tengi yo‘q kutubxona vujudga keldi.

Al-Muizz Fotimiyydan so‘ng vorislari ham ilm-fanga e’tibor qaratishni davom ettirdilar. Xalifa al-Muizzning uchinchi o‘gli, o‘zining donoligi bilan shuhrat qozongan al-Aziz 988-yilda olimlar va ilm ixlosmandlari foydalanishi uchun “Xazain al-Kusur” nomli yana bir katta kutubxona tashkil etgan. Uning qirqta xonasida 1,6 millionga yaqin ma’lumotlar, risolalar va kitoblar mavjud edi[3:24]. Al-Aziz yangi tashkil etgan kutubxonasiiga otasi to‘plagan kitoblarni ham joylagan bo‘lishi kerak.

Al-Hakim (996-1021) hukmronligi davrida otasi al-Azizning kutubxonasini rivojlantirdi. 1004-yilning 25-martida Zab ut-Tabobinda “Dar al-ilm” yoki “Dar al-hikma” (“Ilm uyi”) ga asos solgan va “Xazain al-Kusur” kutubxonasiagi barcha kitoblarni o‘zining “Ilm uyi” yonida tashkil etgan kutubxonasiiga o‘tkazgan. Ushbu kutubxona hamma uchun ochiq edi[3:25].

1036 – 1094-yillarda hukmronlik qilgan al-Hakimning nabirasi al-Mustansir davrida armiyaning berber, turk, fors, arab va sudan qo‘sishnulari o‘rtasida to‘qnashuvlar kuchaydi. Ochlik siyosiy beqarorlikka olib keldi va iqtisodiyotni zaiflashtirdi. Askarlar maoshsiz qolishdi va al-Mustansir o‘z xazinalarini sotib yuborgan bo‘lsa-da, ular ko‘proq narsani xohlashdi. 1068-yilda qirq xonadan iborat saroy kutubxonasi turk askarları tomonidan egallanib, talon-taroj qilinganida birgina klassik mualliflarning asarlari 18 000 jildni tashkil etgan[4]. Bizningcha, al-Hakim ham yangi kutubxonani otasi singari qirq xonadan iborat qilib qurishga farmon bergen bo‘lsa kerak.

Kutubxonada taniqli arab tilshunosi Xalil qalamiga mansub “al-Ayn” lug‘atining o‘ttizdan ortiq nusxasi mavjud edi[5]. Solnomachi [Ibn Abu Tayyiy](#) Fotimiylar kutubxonasini: “Dunyo mo‘jizalaridan biri edi va barcha islom mamlakatlarida Qohira saroyidagidan kattaroq kutubxona bo‘lmagan”, deb yozadi. [Al-Maqriziyning](#) yozishicha, kitoblarning bir qismi berber qabilalari qo‘liga tushgan, ular mish-mishlarga ko‘ra, muqovaning bir qismini sandal yasashda ishlatgan[6]. Salohiddin Ayyubiy Qohiraga kelganida Fotimiylar kutubxonasida 120 000 kitob mavjud edi. Salohiddin Ayyubiy bu kitoblarni askarlariga tarqatadi va shu tariqa Fotimiylar ramzi bo‘lgan xalifalik kutubxonasi nihoyat vayron bo‘ladi[3:25]. Kutubxonada shu davrning yetuk astronom, matematik, tilshunos, shifokor va huquqshunoslari foydalanib, tadqiqot olib borganlar. Ular turli davlatlardan tashrif buyurgan ilm ixlosmandlari edilar. Bir so‘z bilan aytganda, “Dar al-ilm” Bag‘dodda faoliyat yuritgan “Bayt al-hikma”ning raqibi edi.

Islom olamining uchinchi yirik kutubxonasi Qurdoba xalifaligida vujudga kelgan. Ushbu kutubxonaga xalifa Abdurahmon III ning vorisi al-Hakam II tomonidan asos solingan.

Ummaviylar sulolasining hukmronligi 750-yilda tugatilgandan keyin shahzoda Abdurahmon I Abbosiyalar hokimiyatini tan olishdan bosh tortdi, shundan so‘ng olti yil qochqinlikda yurdi. Abdurahmon I 756-yilda Periney yarim orolida yashaydigan turli xalqlarni

25 yil davomida birlashtirib, Qurdoba amirligiga (756-1031) asos soldi. 929-yilda Abdurahmon III xalifa deb e’lon qilindi, shundan so‘ng amirlik xalifalik deb atala boshlandi. Uning hukmronligi davrida xalifalik iqtisodiy jihatdan yuksalib, davlat daromadlari oshdi. 961-yilda Abdurahmon III vafot etgach uning 46 yoshli o‘g‘li [al-Hakam II](#) taxtga o‘tirdi.

Al-Hakam II ning o‘zi ham olim bo‘lib, ilm-fanga homiylik qilgan. U olimlarga katta imtiyozlar bergan va poytaxtda 27 ta bepul maktablar tashkil etgan. Abdurahmon I davrida Qurdobada masjid qurilgan bo‘lib, uning vorislari davrida masjid kengaytirilgan. Jahon ta’lim muassasalari orasida muhim o‘ringa ega bo‘lgan Qurdoba universiteti Abdurahmon III davrida ushbu masjidda tashkil qilingan edi. Bu universitet Qohiradagi al-Azhardan ham, Bag‘doddagi Nizomiyyadan ham oldinda edi, universitetda nafaqat Ispaniyaning turli hududlaridan, balki Yevropa, Afrika va Osiyodan ham nasroniy va musulmon talabalar kelib ta’lim olgan. Al-Hakam universitet qoshida joylashgan masjidni kengaytirgan, unga qo‘rg‘oshin quvurlari orqali suv o‘tkazgan va uni Vizantiya rassomlari olib kelgan mozaikalar bilan bezatib, masjidga 261,537 dinor va 1,5 dirham sarflagan. Universitetdan tashqari poytaxtda katta kutubxona joylashgan edi. Al-Hakam bibliofil (nodir va qimmatli nashrlarni to‘playdigan shaxs) edi, u o‘z ma’murlarini Iskandariya, Damashq va Bag‘doddagi kitob do‘konlariga qo‘lyozmalar sotib olish yoki nusxalash maqsadida yuborardi. San’at va madaniyat homiysi bo‘lgan al-Hakamning 400 000 jildli kutubxonasi va qirq to‘rt jildli katalogi o‘sha davrning eng yirik islomiy to‘plamlaridan biri edi. Musulmon xalifalari ichida yetuk olim bo‘lgan al-Hakam bu asarlardan shaxsan o‘zi foydalangan[7:114]. Uning hukmronligi davrida Qurdoba universitetida tarjima ishlari olib borilgan hamda ko‘plab kitoblar lotin va yunon tillaridan arab tiliga tarjima qilingan. Qurdoba uning hukmronligi davrida islam madaniyatining yetakchi markazlaridan biriga aylangan.

Manbalarda Al-Hakam II ning shunchaki kitob yig‘uvchi emas, balki o‘z to‘plamidagi barcha kitoblarning mazmunini bilgan, deb hisoblangan mashhur olim ekanligi qayd etiladi. Tadqiqotchi Don Hamerlining qayd etishicha, xalifaning tarix ilmiga mehri boshqacha bo‘lgan. U tomonidan yozilgan tarix to‘g‘ri va xolis yoritilgan bo‘lib, musulmon olamining ulamolari ham u qayd qilgan ma’lumotlarga shubha bilan qaramagan[8:8].

## XULOSA

O‘rta asrlarda musulmon Sharqida ilm-fan taraqqiy etib, masjid va madrasalar qoshida, hukmdorlar saroyida kutubxonalar tashkil etilgan. Xalifalik kutubxonalarida turli mamlakatlardan keltirilgan kitoblar saqlangan. Xalifalar tomonidan kutubxonalaridagi kitoblarning saqlanishi va undan foydalanish tartib-qoidalari ishlab chiqilib, doimiy nazorat qilingan. Kutubxonalaridagi lotin va yunon tilidagi kitoblar tarjimonlar tomonidan arab tiliga tarjima qilingan. Ushbu davrda Damashqda, Bag‘dodda, Qohirada, Qurdobada faoliyat yuritgan olimlar jahon ilm-fanining rivojiga beqiyos darajada ta’sir ko‘rsatdi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

[1]Abduhalimov B. Bayt al-hikma va Markaziy Osiyo olimlarining Bag‘doddagi ilmiy faoliyati. – Toshkent: “O‘ZBEKISTON” NMIU, 2010. – S. 31.

[2]Adel Abdul-Aziz Algeriani., Mawloud Mohadi. The House of Wisdom (Bayt al-Hikmah) and Its Civilizational Impact on Islamic libraries: A Historical Perspective // Mediterranean Journal of Social Sciences. Vol 8 No 5 September 2017. – P. 181-185.

[3]Shamsuzzoha A. Fatimid Library: History, Development and Management // Journal of the Bangladesh Association of Young Researchers. September, 2014. – P. 24-25.

[4] <https://www.aramcoworld.com/articles/2019/cairos-house-of-knowledge>

[5]<https://ismailimail.blog/2015/01/17/the-fatimid-library-was-considered-a-wonder-of-the-world/>

[6]<https://kathleenmccook.substack.com/p/dar-al-ilm-fatimid-library-in-cairo>

[7] Islamic culture in Spain // Directorate of distance education university of Kashmir, 2021. – P. 114.

[8]Don Hamerly. Libraries: Traditions and Innovations. – Walter de Gruyter GmbH, Berlin/Boston, 2017. – P. 8.